

SIYOSIY ELITANING MOHIYATI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yonalishi 3-kurs talabasi
Mustafayeva Hikoyat Zilobiddin qizi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada muallif siyosiy elitaning kelib chiqishi, tarixi, tarifi, uning darajalari, transformatsion yo'nalishlari, makiavelli maktabi haqida, elitaga tanlab olishning ikkita: gildiya va antraprener tizimlari haqida, siyosiy elitaning vazifalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Elitalar nazariyasi, klassik marksizm nazariyasi, siyosiy elita, jamiyat elitasi, kontrelita, administrativ elita, iqtisodiy elita, harbiy va politsiya elita, transformatsion yo'nalish, makiavellistik maktab, gildiya, antraprener,

“Siyosiy elita” tushunchasi va konsepsiyalari

Har doim va hamma joyda hokimiyatni tor doiradagi odamlar, ozchilik amalga oshiradi. Hukmronlikni qolganlar ustidan amalga oshiradigan ushbu ozchilikning mohiyati nimadan iborat? Uning vazifalari nima? Ushbu savollarga elitalar nazariyasidan javob olish mumkin.

Elitalar nazariyasi siyosatshunoslik fanida yaqinda shakllangan. Uning shakllanishiga siyosiy jarayonlarni ko'rib chiqishdagi sinfiy yondashuv to'sqinlik qilgan. Ushbu yondashuvning eng yorqin misoli marksizm edi. Marksizm nazariyasida muhim bir hukmron elitaning mavjudligi rad etilgan.

Klassik marksizm nazariyasi bo'yicha siyosiy hukmronlikni amalga oshirgan sinf bu iqtisodiy hukmronlikni amalga oshirayotgan sinf, boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarishni o'z qo'lida tutgan sinf tashkil etgan.

«**Elita**» atamasi fransuzcha «elite» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u eng yaxshi, tanlangan degan ma'noni bildiradi. «Tanlangan bug'doy», «tanlangan poda» va x.k. deyiladi. Buni eng yaxshiligini, oliy navligini, tanlanganligini ko'rsatish uchun aytiladi. Siyosiy leksikada ham avvaldan ushbu termin xuddi shunday ma'noni anglatgan.

Tarixan «elita» atamasi omma tepasida turgan va o'zlarining maxsus hususiyatlariga ko'ra uni, ya'ni ommani boshqara oladigan, jamiyat uchun juda qadrli hisoblanishi ijtimoiy guruhga nisbatan qo'llanilgan. Platon qat'iyon demosning (xalqning) davlatni boshqarishiga qarshi bo'lgan. Uning nazarida jamiyatni donolik fazilatiga ega bo'lgan, aqliy jihatdan yaxshi rivojlangan faylasuflar boshqarishi lozim. Jamiyatning boshqa lazzat va shahvatlarga g'arq bo'lgan qismi dono faylasuflarga bo'ysunishi lozim.

Siyosiy elita» atamasi o‘zining zamonaviy talqinida, butun jamiyat ustidan real hokimiyatga ega bo‘lgan **«ozchilik»** ijtimoiy guruhi sifatida siyosatshunoslikda XX asrning boshlarida avstriyalik siyosatshunos R.Mixels va italiyalik siyosatshunoslar G. Moska va V.Paretolar tomonidan kiritildi.

R.Mixels oligarxiyaning temir qonunini yaratdi. U quyidagidan iborat: hokimiyatning ozchilik tomonidan egallanishi jarayoni muqarrardir, har qanday tashkilot ko‘pchilikni boshqaradigan ozchilik tomonidan boshqarilishiga harakat qiladi. G.Moska bu qarashni rivojlantirgan holda, siyosiy elitani yopiq sinf, **«siyosiy sinf»** deb ataydi.

V..Pareto siyosatshunoslik faniga «elita» va «kontrelita» tushunchalarini kiritdi. V..Paretoning fikricha, individlar bir-birlaridan jismoniy, axloqiy va intellektual (aqliy) hususiyatlari bilan ajralib turishadi. Shularning har birida yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan individlar guruhi elita nomini olishadi.

Shunday qilib, **jamiyat elitasi** - bu o‘zlarining tug‘ma ruhiy (psixologik) hususiyatlari sababli, yuqori fazilatni yoki o‘zlarining faoliyat sohalarida yuqori darajadagi qobiliyatni ko‘rsata oladigan ma‘lum bir kishilar guruhi.

«Elita» atamasining asosiy g‘oyasi - ustunlik demakdir.

Paretoga binoan, elita hukmron elitaga - bevosita yoki bilvosita boshqarish ishlarida qatnashadigan va hukmron bo‘lmagan elitaga – kontrelitaga bo‘ysunadi. **Kontrelita** bu elitaga xos bo‘lgan psixologik hususiyatlarga ega, biroq u yoki bu jamiyatda maqomi va boshqa turli xil to‘sqinlar sababli boshqaruv funksiyalarga kirishga ega bo‘lmagan kishilar guruhidir. Ba‘zi bir holatlarga ko‘ra, elita va kontrelita vakillari o‘z o‘rinlari bilan almashishlari mumkin.

«Siyosiy elita» tushunchasini keng va tor ma‘noda qo‘llash lozim. Keng ma‘noda «siyosiy elita» tushunchasi «hukmron elita» tushunchasiga teng.

Boshqaruv elitasi bu jamiyatning tashkiliy ozchiligi bo‘lib, ko‘pchilikdan farqli bo‘lgan lekin juda birdam ijtimoiy guruh hisoblanadi. U liderlik qobiliyatlarga ega bo‘lib, boshqaruv funksiyalarini amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rgan; u jamiyat institutlarida boshqaruv kursini egallaydi, hamda bevosita va bilvosita jamiyatda hokimiyat qarorlariga ta’sir ko‘rsata oladi.

Siyosiy elita tor ma‘noda boshqaruvchi elitaning bir qismi bo‘lib, o‘zining hokimiyatni amalga oshirishga bevosita qatnashishi bilan undan farq qiladi.

Siyosiy elita o‘z qo‘lida davlat hokimiyatini jamlagan va jamiyat boshqaruvida yuqori lavozimlarni egallaydigan ijtimoiy guruhdir. Jamiyatning siyosiy elitasiga hokimiyat funksiyasi va vakolatlariga ega bo‘lgan yuqori rangdagi professional siyosatchilar kiradi. Yana siyosiy elitaga siyosiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda jamiyat rivojlanishining strategiyasini ishlab chiqishda qatnashadigan maxsus tayyorlangan oliy darajadagi siyosiy xodimlarni kiritamiz, siyosiy elitaning o‘ziga xos asosiy tomonini ta’kidlash maqsadida, uni ba’zan **«davlatlarning siyosiy**

rahbariyati, «siyosiy qarorlar qabul qilish markazi» deb aytishadi. Uning tarkibi yildan-yilga o'zgaradi, ammo lavozimlar tuzilishi deyarli o'zgarmaydi. Bu davlat boshliqlari, ijro etish, qonun chiqarish, sud hokimiyatlarining rahbariyatlari, oliy diplomatik korpuslaridir.

Siyosiy elita hokimiyat funksiyalarining hajmi asosida siyosiy elitaning quyidagi **darajalariga** bo'lish mumkin: **oliy, o'rta va quyi**.

Oliy darajadagi siyosiy elitaga mamlakat rahbari, Bosh vazir, Bosh vazir o'rinbosarlari va lider vazirlar, parlament spikeri, deputatlar fraksiyalari rahbarlari kiradi. Bu, jamiyat uchun ancha muhim bo'lgan siyosiy echimlarni qabul qiladigan, son jihatidan ancha cheklangan insonlar guruhi (100-200 kishi).

O'rta darajadagi siyosiy elita ko'plab sonli saylangan mansabdor shaxslardan shakllanadi: hokimlar (gubernatorlar), parlament deputatlari, siyosiy partiyalar va jamoat harakatlari hamda kasaba uyushmalari boshliqlari. Lekin, demokratik institutlar rivojlangan davlatlarda partiyalar va kasaba uyushmalar liderlari yuqori elita tarkibiga kirishlari mumkin.

Quyi darajadagi elitani mahalliy doirada faoliyat olib boruvchi siyosatchilar tashkil qiladi (rahbarlar va mahalliy boshqaruv organlari deputatlari, regional doiradagi partiya a'zolari).

Administrativ elita – bu boshqaruvning texnik-tashkiliy vositalarini o'z qo'lida monopollashtirgan, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Personal tarkibda administrativ elita – bu vazirliklarda, hukumatning turli boshqaruv organlari departamentlarida muhim o'rinlarni egallovchi davlat ishchilarining (mansabdor shaxslar) eng yuqori tabaqasi. Administrativ elita siyosiy elita tarkibiga kiradi, lekin, uni (boshqaruv apparati) tuzilishi jihatidan mustaqil guruhga ajratish mumkin.

Iqtisodiy elita – bu boshqaruv tizimida o'z faoliyatini xususiy mulk asosida olib boruvchi, boshqarayotgan elitaning bir qismidir. Iqtisodiy elita tarkibiga o'z qo'llarida moddiy va moliyaviy resurslarni to'plagan shaxslar kiradi: ulkan korporatsiyalar, banklar egalari va ularning menejerlari.

Harbiy va politsiya elitasi- tarkibiga davlatning oliy harbiy rahbarlari, generalitet, ichki ishlar vazirligi, davlat xavfsizligi, maxsus xizmatlar va hk. boshliqlari kirishadi. Ba'zi davlatlarda harbiy elitaning bir qismi oliy tabaqa elita tarkibiga kirsam, boshqa qismi esa o'rta yoki administrativ elita tarkibiga kiritilishi mumkin.

Ko'zga ko'rinadigan qatlamlardan birini, ma'naviyat, madaniy, mafkuraviy elitalar tashkil qiladi. «Ma'naviy yo'l boshchilar» va yirik ommaviy axborot vositalari xodimlari va ta'lim tarbiya maskanlari, ziyoliylar va zakovatlilar, yozuvchilar, diniy arboblilar, adabiyot va san'at xodimlari shular jumlasidandir.

Siyosiy elita - bu hokimiyatga erishgan, jamiyat hayotining turli sohalarida buyruq beruvchi o'rinlarni egallagan odamlar to'dasi emas, balki barcha siyosiy tizimlarda bo'ladigan mukammal tashkil etilgan hamkorlik ijtimoiy guruhlardir. Shu

o‘rinda, u guruhlarning vujudga kelishi uchun ma’lum bir ob’ektiv sharoit va imkoniyatlar bo‘lishi lozim. Bu sabablar, imkoniyatlarini uch darajaga bo‘lish mumkin. Birinchi darajali imkoniyatlarni ijtimoiy sabablar tashkil etadi: umumiy mehnat taqsimoti va jamiyatni ijtimoiy yo‘naltirishdan iborat.

Elita nazariyalarining **transformatsion** yo‘nalishlari:

- 1.Nikolo Makiavelle maktabi;
- 2.Qadriyatlar nazariyasi yo‘nalishlari;
- 3.Demokratik elitizm yo‘nalishlari;
- 4.Elitar plyuralizm yo‘nalishi;
- 5.So‘l liberal yo‘nalishi;

Siyosiy elita to‘g‘risidagi tasavvurlarni chuqur bilish uchun aniq tarixiy yondashuvlarni ko‘rib chiqish lozim.

XX asr siyosatshunoslari uchun siyosiy elita yoxud boshqaruvchi siyosiy elitani mavjudligi absolyut banallik sifatida qabul qilinishi kerak. Ammo hozirgi kunda siyosiy elita va jamiyat o‘rtasida mavjud bo‘lgan munosabatlarning keskinlashuvi kuzatilmoqda va o‘rtada nizolar kelib chiqmoqda. Bu orada ikkita asosiy modellarni ko‘rib chiqish kerak. Birinchi model shuni ta’kidlaydiki, ta’sir doirasi keng va butun jamiyatni o‘ziga qamrab oladigan siyosiy elitalar mavjud. Bu oligarxik, elitaristik modeldir. Ikkinchi model esa ko‘plab elitalarining mavjudligini ta’kidlaydi va elitalar o‘rtasidagi raqobatni ham o‘z nazarida tutadi. Bunday model esa poligarxik, yohud demokratik model nomini olgan.

Birinchi modelning ko‘zga ko‘ringan vakillari, “**makiavellistik maktab**” deb nom olgan oqim namoyandalari G.Moska, V.Pareto, R.Mixelslardir. “**Makiavellistlar degan atamani**” birinchi bo‘lib amerikalik politologlardan F.Xinter ishlatgan. Bunga sabab ushbu siyosatshunoslarning fikrlari XVI asrda ijod qilgan buyuk mutafakkirning fikrlariga yaqin edi. “Makiavellistlarning” xususiyati shundaki, ular elitani alohida mujassamlashgan guruh sifatida ko‘rganlar. Bundan tashqari, bu guruh boshqa guruhlar orasida o‘z ustunligini alohida xususiyatlar bilan qo‘llab-quvvatlagan.

Hozirgi davrda demokratik jamiyatlar uchun dolzarb vazifalardan biri –elitar guruhlarga qarshi kurash emas,balki jamiyat uchun foydali siyosiy elitalar guruhini shakllantirishdir, unda ijtimoiy vakolatlikning o‘z vaqtida sifat jihatdan yangilanib turishini ta’minlash,oligarxiyalashuvi, xalqdan begonlashuvi va yopiq hukmron, imtiyozli tabaqaga aylanishining oldini olishdir. Elitalar ijtimoiy vakolatligiga, uning sifatiga va samaradorligiga elitarni, a’zolarini tanlab olish tizimi muhim ta’sir ko‘rsatadi. Elitaga tanlab olishning ikkita asosiy tizimi, **gildiya** va **antraprener** tizimi mavjud.

Gildiya tizimiga talabgorlarni yopiq holda tanlash, quyi xizmat pillapoyalaridan, yuqori qarab o‘shish, tanlab olishga, murakkab talablar tizimi (bularga partiya a’zoliqi,

ish staji, ma'lumoti, egallab turgan lavozimi, rahbariyatning ijobiy tavsifnomasi va hokazalar kiradi) xos.

Antraprener tizimi gildiya tizimiga qarama-qarshi bo'lib, bu tizim quyidagilar bilan xarakterlanadi:

Ochiqlik, yetakchi pozitsiyalarni egallashga har qanday ijtimoiy guruhlarga keng imkoniyatlar berilishi;

Rasmiy talablarning ko'p emasligi;

Istagan kishi da'vogarlik qila olishi;

Tanlab olishdagi yuqori raqobat;

Shaxsiy xususiyatlarning yetakchi ahamiyatga egaligi va h.k.

Siyosiy elita faoliyati samaradorligining eng muhim mezonlari quyidagilardir: erishilgan taraqqiyot darajasi va keng aholi qatlami farovonligi,

jamiyatning siyosiy barqarorligi;

milliy xavfsizlik, fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasidagi maqbul muvozanat.

Siyosiy elitaning vazifalari xilma -xil, murakkab va katta mas'uliyat yuklaydi.

Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

1) Jamiyatni boshqarish Siyosiy elita - siyosiy, iqtisodiy, ma'muriy, madaniy va boshqalar uchun yetakchi kadrlarning asosiy zaxirasi boshqaruv. Turli xil resurslarni nazorat qilib, siyosiy elita odamlarning turmush sharoitiga ta'sir qilish imkoniyatiga ega.

2) Strategik funktsiya. Siyosiy elita jamiyatni rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi, harakatning siyosiy dasturini belgilaydi va shoshilinch islohotlar kontseptsiyasini ishlab chiqadi. Bu funktsiya siyosiy elitaning eng yuqori darajasida to'liq amalga oshiriladi.

3) safarbarlik funktsiyasi. Siyosiy elitaning strategik kursini amalga oshirish uchun ommani siyosiy qarorlarni amalga oshirish uchun uyushtirish zarur.

4) kommunikativ funktsiya. Elitaning siyosiy dasturlari jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari va qatlamlarining fikrlari, manfaatlari, ehtiyojlarini aks ettirishi kerak. Siyosiy elita turli xil ijtimoiy jamoalar kayfiyatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra olishi, jamoatchilik fikridagi o'zgarishlarga munosabat bildirishi va ularga mos qarorlar qabul qilishi kerak. Bu funktsiya ommaviy axborot vositalari, PR xizmatlari, sotsiologik markazlar va boshqalarni o'z ichiga oluvchi omma bilan aloqa kanallarining ishlashini ham ta'minlashi kerak.

5) Integratsion funktsiya. U jamoat hayotining barqarorligini ta'minlash, keskin ziddiyat va nizolarni bartaraf etish uchun mo'ljallangan. Buning uchun siyosiy elitaning harakatlari aholining turli qatlamlarini to'plashga, ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirishga va uyg'unlashtirishga, siyosiy raqiblar bilan kelishuvga va hamkorlikka erishishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, siyosiy elita bajarishga chaqirilgan vazifalarning mazmuni va chegaralari mamlakat konstitutsiyasi va boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi. Vazifalar mazmuniga ma'lum bir davlatning siyosiy rejimi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy elitaning ijtimoiy maqsadi birinchi navbatda uning jamiyatda bajaradigan vazifalarida namoyon bo'ladi. Bu funksiyalar xilma -xil va umuman jamiyatning siyosiy tizimi, uning quyi tizimlari va alohida institutlari bajaradigan vazifalar bilan chambarchas bog'liq.

Shunday qilib, siyosiy elita - bu tasodifan hokimiyatga ega bo'lgan odamlarning oddiy yig'indisi emas, balki "tabiiy tanlanish" natijasida vujudga kelgan va odamlar qatlamini ifodalovchi ijtimoiy guruh. ma'lum qobiliyat, kasbiy bilim, ko'nikma va qobiliyatga ega bo'lgan shaxslar. Har qanday siyosiy elita jamiyatning rivoji, taraqqiyoti, mavjudligining asosidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://gigafox.ru/uz/childrens-health/funkcii-elity-funkcii-politicheskoi-elity>
2. "Siyosatshunoslikka kirish" kitobidan
3. "Siyosat falsafasi"- A.Qodirov.2005
4. "Siyosatshunoslik"-Odil Qoriyev:TOSHKENT-2008
5. <http://genderi.org/mavzu-siyosatshunoslik-fani-predmeti-maqsad-va-vazifalari.html?page=9>